



XUDOYBERDI TO‘XTABOYEVNING “BESH BOLALI YIGITCHA” ASARIDAN OLGAN TAASSUROTLARIM

Muzaffarova Nilufar

Ishtixon tumani 36-maktabning

5-sinf o‘quvchisi

O‘zbekiston xalq yozuvchisi, davlat arbobi Xudoyberdi To‘xtaboyev 1932-yil 17-dekabrda Farg‘ona viloyatida tug‘ildi. U o‘zining mehnat faoliyatini 1955-yildan boshlagan. “Sharq yulduzi” jurnalida muharrir, “Gulxan”, “Yosh kuch” jurnallarida bosh muharrir; “Iste‘dod” va “Oltin meros” jamg‘armalarining rahbari sifatida faoliyat olib borgan.

Katta bilim va tajribaga ega murabbiy sifatida ko‘p yillar O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining bolalarga mo‘ljallangan “O‘yla, izla, top” dasturiga boshchilik qilgan.

Iste‘dodli adib oltmish yildan ziyot davom etgan ijodiy faoliyati natijasida “Shoshqaloq”, “So‘qmoqlar”, “Muhabbat qo‘shig‘i”, “Jonginam, shartingni ayt” singari hikoyalar to‘plamlari; “Sir ochildi”, “Omonboy va Davronboy sarguzashti” qissalari hamda “Sariq devni minib”, “Sariq devning o‘limi”, “Besh bolali yigitcha”, “Qasoskorning oltin boshi”, “Yillar va yo‘llar”, “Shirin qovunlar mamlakati”, “Mungli ko‘zlar”, “Jannati odamlar”, “Qiz talashgan o‘smirlar”, “Quyvonlar saltanati”, “Qiz bolaga tosh otmang” romanlarini yozgan.

Ana shunday betakror asarlaridan biri “Besh bolalik yigitcha” romanidir. Asarning bosh qahramoni- Orif. Orif ukalariga juda mehribon edi. Onasining uy ishlariga ko‘makchi, jonkuyar; ukalarini eng qiyin kunlarda ham tashlab ketmaydi, balki ularga yordam beradi. Hattoki ukalarining yeguliklarini ham hech kimga bermaydi. Tabiatan quvnoq bo‘lganligi uchun do‘stlarini Afandi latifalaridan aytib kuldiradi, shunday og‘ir zamonda ularga xursandchilik ulashadi. Ammo do‘stlari uni masxara qilsa ularning ham ustidan kulardi. Ukalarini yelkasida opichlab kata qilgan Prifga hamisha ham oson bo‘lmadi. G‘afur G‘ulom aytganidek:

Iblisning g‘arazi bo‘lgan bu urush

Albatta yetadi o‘zin boshiga,- kunlar kelishigacha taqdir charxpalagi uni ne kunlarga solmadi deysiz... Onasidan ayrildi, otasi urushdan qaytmadi... Ammo Orif qaddini egmadi. Ukalariga suyanchiq bo‘la oldi.

Xudoyberdi to‘xtaboyev – kata iste‘dod egasi. Urush yillaridagi bir o‘smirning hayoti yoritilgan bu asari ham tengsiz asardir.

Besh bolali Orif achchiq sinovlarni boshidan kechirdi. Aytish mumkinki, u zafar quchgan Orifdir!